

TALABALIK DAVRIDA PSIXOLOGIK MADANIYATNI SHAKILANTIRISH

Botirova Yorqinoy Dilshod qizi
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi
Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli
Kadrlarni tayyorlash instituti

ANNOTATSIYA

Talabalik davri — shaxsning intellektual, ijtimoiy va emotsional rivojlanishida eng muhim bosqichlardan biridir. Ushbu davrda psixologik madaniyatning shakllanishi ko'p qirrali jarayon bo'lib, u nafaqat bilim va ko'nikmalar majmuasi, balki shaxsning o'zini anglash, o'zaro muloqot madaniyati, hissiy-intellektual barqarorlik va axloqiy qadriyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Psixologik madaniyatning shakllanish darajasini aniqlash va baholash esa talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirish jarayonida diagnostika ishlarining muhimligini ko'rsatadi.

Kalit so'zi: axloqiy qadriyatlar, hissiy-intellektual, shaxsning o'zini anglash.

Psixologik madaniyat diagnostikasi talabalarda quyidagi asosiy ko'rsatkichlarni aniqlashga qaratiladi:

- psixologik bilim va tushunchalarning nazariy darajasi;
- amaliy psixologik ko'nikmalarning rivojlanganlik darajasi;
- hissiy barqarorlik va konfliktlarni konstruktiv hal qilish qobiliyati;
- o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan motivatsiya va mas'uliyat hissi.

Bunday diagnostik ishlar talabalarning shaxsiy rivojlanishidagi kuchli va zaif tomonlarni aniqlash, individual va guruh psixokorreksiya dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, psixologik madaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik va psixologik ta'sir choralarini rejalashtirish imkonini beradi. Natijada, talabalik davrida psixologik madaniyatning holati va dinamikasini muntazam o'rganish, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni chuqur tahlil qilish dissertatsiya tadqiqotining amaliy ahamiyatini oshiradi.

Biz endi psixologik madaniyatning kasbiy o'zini anglashga ta'sirini o'rganish maqsadida yuqorida sanab o'tilgan metodikalar asosida respondentlardan olingan ma'lumotlarning tavsifiga to'xtalamiz.

Empirik tadqiqot ikki bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda, tavsiflovchi statistika vositasida psixologik madaniyat komponentlarining shakllanganlik darajasi aniqlandi hamda talabalar kasbiy o'zini anglash darajasi baholandi

Ikkinchi bosqichda esa, biz kelajakdagi mutaxassislarning kasbiy o'zini anglash komponentlari bilan bog'liq bo'lgan psixologik madaniyat komponentlarini aniqladik. Tadqiqotda Guliston davlat universitetida tahsil olayotgan 119 nafar talabalar, Kattaqo'rg'on davlat pedagogika insitutidan 91 nafar, Qo'qon davlat Universitetidan 100 nafar talabalar jalab etildi, jami respondentlar soni 310 nafar. Barcha ishtirokchilar — bu 19 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar bo'lib, kunduzgi ta'lim shaklida o'qiydilar.

Natijalarni qayta ishlash jarayonida quyidagi ma'lumotlar olindi:

1. Mualliflik so'rovnomasi: Yoshlarda psixologik madaniyatni aniqlash anketa-so'rovnomasi natijalari

2.1-jadval

№	Ko'rsatkichlar	Guliston DU (N=119)	Kattaqo'rg'on DPI (N=91)	Qo'qon DU (N=100)	Kraskel–Uollis mezon	Ahmiyatlilik darajasi (p)
1	Men o'z hissiyotlarimni anglay olaman va boshqalar bilan ulashishga tayyorman.	4.12	4.05	4.13	1.245	0.264
2	Ruhiy salomatlikni saqlash hayotimda muhim o'rin tutadi.	4.38	4.32	4.36	0.542	0.582



3	Men qiyin holatlarda o'z ustimdan nazoratni saqlay olaman.	3.92	3.87	3.91	0.623	0.541
4	Men boshqalarning hissiyotlarini tushunishga harakat qilaman.	4.27	4.23	4.25	0.483	0.617
5	Men psixologik yordamga murojaat qilishdan uyalmayman.	3.68	3.74	3.69	0.316	0.729
6	Mening o'zim haqidagi fikrim aniq va barqaror.	3.97	3.93	3.95	0.518	0.596
7	Men ijtimoiy muhitda o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni qadrlayman.	4.42	4.39	4.40	0.389	0.678
8	Men o'z xatti-harakatlarimning sabab va oqibatlarini tushunishga intilaman.	4.16	4.13	4.15	0.254	0.775
9	Men o'z shaxsiy muammolarim	3.86	3.84	3.85	0.198	0.821



	ustida mustaqil ishlashga harakat qilaman.					
10	Men psixologik bilimlarni hayotda qo'llashga intilaman.	4.07	4.03	4.05	0.314	0.731

Izoh: * $p \leq 0,05$ darajasida farqlar ahamiyatli hisoblanadi.

O'tkazilgan mualliflik so'rovnomasi natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, Guliston davlat universiteti (N=119), Kattaqo'rg'on davlat pedagogika insituti(N=91) va Qo'qon davlat universiteti(N=100) talabalari orasida psixologik madaniyat darajalari o'xshash tendensiyaga ega bo'lib, ko'rsatkichlar o'rtasida statistik ahamiyatli farqlar aniqlanmadi ($p > 0,05$)

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, respondentlarning o'z-o'ziga munosabati o'rtacha darajada bo'lib, bu ko'rsatkichlar o'rtasida farqlar mavjudligini ko'rsatadi. O'zini qabul qilish, qadrlash, boshqarish va o'z-o'ziga mehr bilan bog'liq ko'rsatkichlar orasida farqlar mavjud bo'lsa-da, respondentlarning ko'pchiligi o'zini ijobiy tarzda baholagan va o'z-o'ziga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lgan. Shu bilan birga, ichki ziddiyatlar va o'zaro baholashda katta farqlar mavjud bo'lib, bu respondentlarning ichki holatlari va o'zini tushunish darajalarida sezilarli farq borligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Психология и культура / под ред. Д. Мацумото. СПб. : Питер, 2003.
2. Психология. Словарь /Под общей ред. А.В. Петровского, М.Г. Ярошевского – М.: Политиздат, 19990. – 494 с.
3. Қодиров Ш.М. «Психологик маданият ва жамият». Тошкент, 2011.
4. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. СПб. : Питер, 2002.
5. Раҳматов Ў.Ш. «Ижтимоий ва психологик маданиятнинг ўзаро алоқаси». Тошкент, 2019.
6. Самоукина Н.В. Практический психолог в школе: лекции, консультирование, тренинги – М.: Изд-во Института Психотерапии, 205 – 244с.